Jumanov Ziyadulla Eshmamatovich - DSc, professor
Abdullaev Sheroz Shavkatovich - mustaqil izlanuvchi
Samarqand davlat tibbiyot universiteti (Samarqand, O‘zbekiston)

ERTA TUG‘ILGAN MONOXORIAL EGIZAKLAR YO‘LDOSH TO‘QIMASIDAGI O‘ZGARISHLARNING PATOMORFOLOGIK JIHATLARI

Annotasiya. *Monxorial erta tug‘ilgan 38 nafar egizaklar yo‘ldosh to‘qimasidan olingan to’qima bo’laklari patomorfologik tekshiruvdan o’tkazilgan. Aniqlanganki, monoxorial egizaklar yo‘ldosh to‘qimasidagi patomorfologik o‘zgarishlar, chala tug‘ilish muddati va darajasiga ko‘ra bir-biridan farq qiladi. Bu esa yo‘ldosh to‘qimasining homila rivojlanishiga qay darjada ta’sir ko‘rsatishini anglatishi ta’kidlangan.*

Kalit so’zlar: *egizak, monoxorial, yo’ldosh, yallig’lanish, fibrinoid nekroz.*

Жуманов Зиядулла Эшмаматович - DSc, профессор
Абдуллаев Шероз Шавкатович - соискатель
Самаркандский государственный медицинский университет (Самарканд, Узбекистан)

ПАТОМОРФОЛОГИЧЕСКИЕ ИЗМЕНЕНИЯ ТКАНИ ПЛАЦЕНТЫ У МОНОХОРИАЛЬНЫХ БЛИЗНЕЦОВ, РОДИВШИХСЯ ПРЕЖДЕВРЕМЕННО

Аннотация. *Образцы тканей, взятые из плаценты 38 недоношенных близнецов, подверглись патоморфологическому исследованию. Установлено, что монохориальные близнецы отличаются друг от друга по патоморфологическим изменениям в плацентарной ткани, срокам и степени недоношенности. Это показывает, в какой степени плацентарная ткань влияет на развитие плода.*

Ключевые слова: *двойня, монохориальная, плацента, воспаление, фибриноидный некроз.*

Zhumanov Ziyadulla Eshmamatovich - DSc, professor
Abdullaev Sheroz Shavkatovich - applicant
Samarkand State Medical University (Samarkand, Uzbekistan)

PATHOMORPHOLOGY OF CHANGES IN THE ASSOCIATED TISSUE OF MONOCHORIAL TWINS BORN EARLY

Abstract. *Pathomorphological examination of placental tissue from 38 monochorionic preterm twins was performed. It was found that pathomorphological changes in placental tissue of monochorionic twins differed depending on the duration and degree of prematurity. This suggests that the degree to which placental tissue affects fetal development is important.*


Key words: *twin, monochorionic, placenta, inflammation, fibrinoid necrosis.*

Muammoning dolzarbligi. Ko‘p homiladorlik, turli mualliflarning fikriga ko‘ra, 0,5-4% hollarda uchraydi [1]. O‘rtacha tug‘ilish yoshining oshishi va yordamchi reproduktiv texnologiyalardan tez-tez foydalanish tufayli dunyo bo‘ylab egizaklar sonining ko‘payishiga olib kelmoqda. Shunday qilib, muvaffaqiyatli in vitro urug‘lantirish usullaridan foydalanish homiladorlikning 24 foizga tabiiy konsepsiya - faqat 3% ga ko‘payishiga olib kelmoqda [3]. Ko‘p homilalik masalasi bugungi kunda rivojlanish asoratlarining ko‘p uchrashi, homiladorlik kechishining o‘ziga xos bo‘lishligi, tug‘ruqdan keyin yuzaga keladigan asoratlar bisyorligi, yashab qolgan ikkinchi egizaklarda ham kasalliklarni va letal ko‘p uchrashi dolzarb muammoligicha qolib ketmoqda. Perinatal tibbiyotning hozirgi rivojlanish darajasi bilan ham, yangi tug‘ilgan chaqaloqlar o‘limi ko‘p yakka homiladorlikka nisbatan 5 baravar yuqoridir [4]. O‘lik tug‘ilish darajasi yolg‘iz homiladorlik bilan og‘rigan bemorlarga qaraganda 2-10 baravar yuqori. Perinatal kasallik va o‘lim, birinchi navbatda, erta tug‘ilish bilan bog‘liq [5]. Ko‘proq ko‘p tug‘ilishning yarmi (56%) homiladorlikning 37 xaftasidan oldin sodir bo‘ladi, yakka tug‘ilishda 6% ga holatda kuzatiladi [4]. Angiogenez plasenta to‘qimalarining rivojlanishi va normal faoliyatida markaziy rol o‘ynaydi. Plasenta homilaning normal o‘sish va rivojlanishda barcha oziq moddalar bilan ta'minlash uchun mas'ul bo‘lgan organdir [2].


Tadqiqotning maqsadi: Monoxorial chala tug‘ilgan egizaklar yo‘ldosh to‘qimasidagi patomorfologik o‘zgarishlarini aniqlash.

Material va usullari: Samarqand shahar tug‘ruqxonalarila monxorial erta tug‘ilgan 38 nafar egizaklar yo‘ldosh to‘qimasi Samaraqand davlat tibbiyot universiteti ko‘p tarmoqli klinikasi patologik anatomiya bo‘limida o‘rganildi. Yo‘ldosh to‘qimasi tuzilmalarining morfologik va morofmetrik o‘zgarishlarini chala tug‘ilish darjasiga bog‘liqligini baholashda anamnestik, makroskopik, mikroskopik, morfometrik va statistik tadqiqot usullaridan o‘tkazildi. Buning uchun chala tug‘ilgan monoxorial egizaklar quyidagicha guruhlarga ajratib olindi: I-guruh: 22-27 xaftalik (tana vazni 500-999 gr) monoxorial egizaklar; II- guruh: 28-31 xaftalik (tana vazni 1000-1499 gr) monoxorial egizaklar; III-guruh: 32-27 xaftalik (tana vazni 1500-1999 gr) monoxorial egizaklar. Gistologik qirqmalar gemotoksilin-eozin usulida bo‘yaldi.

Natijalar va xulosalari: olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, tadqiqotimizga olingan jami 38 nafar egizaklarning 28 nafari (74 %) o‘g‘il jinsli va 10 nafari (26 %) qiz jinsli egizak homilalardir. 22-27 xaftalik (tana vazni 500-999 gr) monoxorial egizaklar12 nafarni tashkil etib, shundan o‘g‘il jinsli egizaklar 9 nafar (75 %), qiz jinsli egizaklar 3 nafar (25%); 28-31 xaftalik (tana vazni 1000-1499 gr) monoxorial egizaklar 11 nafar bo‘lib, shundan o‘g‘il jinsli egizaklar 8 nafar (67 %), qiz jinsli egizaklar 4 nafar (33%); 32-27 xaftalik (tana vazni 1500-2000 gr) monoxorial egizaklar 15 nafar bo‘lib, shundan o‘g‘il jinsli egizaklar 11 nafar (73 %), qiz jinsli egizaklar 4 nafar (27 %) ni tashkil etadi. Birinchi guruh monoxorial egizaklar yo‘dldosh to‘qimasida yo‘ldosh vorsinkalarini ishemiyasi, fibrinoid nekrozi va terminal vorsinkalarini o‘sganligi aniqlanadi. Vorsinkalararo fibrinning cho‘kkanligi, fibrinoid nekrozi, vorsinkalarning yaqqol fibrozi, mayda qon tomirlarining trombozi qayd etiladi (1-rasm).




1-rasm. **Monoxorial egizaklar yo’ldash to’qimasidagi distrofik va nekrotik o’zgarishlar. Gematoksilin-eozinda bo’yalgan. Ob.40, ok.10**




2-rasm. **Monoxorial egizaklar yo’ldash to’qimasidagi distrofik va nekrotik o’zgarishlar. Gematoksilin-eozinda bo’yalgan. Ob.40, ok.10**

Ikkinchi guruh monoxorial egizaklar yo‘ldosh to‘qimasi ishemiya holatida, vorsinkalarda fibroz to‘qima o‘sganligi, vorsinkalar aro bo‘shliqning to‘liq fibrin bilan yopilganligi, sintitsiotrofoblastlarning o‘sganligi, katta o‘choqli fibrinoid nekroz aniqlanadi (3-rasm).



3-rasm. **Monoxorial egizaklar yo'ldash to'qimasidagi fibroz to'qima o'sganligi va nekrotik o'zgarishlar. Gematoksilin-eozinda bo'yalgan. Ob.40, ok.10**

Uchinchi guruh monoxorial egizaklar yo'ldosh to'qimasining vorsinkalari va vorsinkalar aro bo'lig'ida fibroz to'qima kuchli rivojlanganligi, terminal vorsinkalarning biroz o'sganligi, diffuz fibrinoid nekroz belgilari va ishemiya aniqlanadi (4-rasm).



4-rasm. **Monoxorial egizaklar yo'ldash to'qimasidagi fibroz to'qima o'sganligi va nekrotik o'zgarishlar. Gematoksilin-eozinda bo'yalgan. Ob.40, ok.10**

Shunday qilib, monoxorial egizaklar yo'ldosh to'qimasidagi patomorfologik o'zgarishlar, chala tug'ilish muddati va darajasiga ko'ra bir-biridan farq qiladi. Tug'ilish muddatlari oshgan sari fibroz to'qimaninig shakllanish intensivligininig ortishi kuzatiladi. Bu esa yo'ldosh to'qimasining homila rivojlanishiga qay darjada ta'sir ko'rsatishini anglatadi.

ADABIYOTLAR

1. Ananth CV, Chauhan SP. Epidemiology of twinning in developed countries. Semin Perinatol. 2012; 36(3):156-161. DOI: 10.1053/j.semperi. 2012. 02.001

2. Gourvas V, Dalpa E, Konstantinidou A, Vrachnis N, Spandidos D, Sifakis S. Angiogenic factors in placentas from pregnancies complicated by fetal growth restriction (review). Mol Med Rep. 2012 Jul;6 (1):23-27.

3. Martin JA, Hamilton BE, Osterman MJK. Three decades of twin births in the United States, 1980-2009. NCHS Data Brief.2012;(80):1–8.

4. McClure EM, Saleem S, Goudar SS, Moore JL, Garces A, Esamai F, Patel A, Chomba E, Althabe F, Pasha O, Kodkany BS, Bose CL, Berreuta M, Liechty EA, Hambidge K, Krebs NF, Derman RJ, Hibberd PL, Buekens P, Manasyan A, Carlo WA, Wallace DD, Koso-Thomas M, Goldenberg RL. Stillbirth rates in low-middle income countries 2010–2013: a population-based, multi-country study from the Global Network. Reprod Health.2015; 90(12):1379–1385. DOI: 10.11 86/1742-4755-12-S2-S7.

5. Smith KL, Manktelow NB, Draper ES, Boyle EM, Johnson SJ, Field DJ. Paediatrics Research Trends in the incidence and mortality of multiple births by socioeconomic deprivation and maternal age in England: population-based cohort study. BMG. 2014;4(4):16–32. DOI: 10.1136/bmjopen-2013-004 514.